

**O'ZBEKISTON TABIATINI O'RGANISHDA BADIY
ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH**

Shermatova Dildora Mixliboyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolda umumta'lim maktablari geografiya ta'limida fanlararo aloqa orqali o'qitish va tarbiya dars samaraliligini oshirishda, o'quvchilarni har tomonlama to'liq va mustahkam bilim olishlariga katta imkoniyat berishi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: geografiya ta'limi, fanlararo aloqa, ta'lim, predmet, dars, adabiyot.

Har qanday jamiyat taraqqiyotining har tomonlaman yetuk o'qituvchilarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ta'limning turli bosqichlariga yetuk pedagogik kadrlarni yetkazish avvalo ta'lim sohasidagi tadqiqotlarni izchil olib borish, ta'lim metodikasi faniga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Mamlakatimizda ta'lim tizimi to'g'risidagi qonun (O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son) Kadrlar tayyorlay milliy dasturida tub islohotlar olib borish, ta'limni yanada rivojlantirish va uning uzluksizligiga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim berishda boshlang'ich, kasb-hunar ta'limi, kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shaklida umumta'lim va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida ta'lim amalga oshirilishi belgilanmoqda. Darslarni olib borishda boshqa fanlar bilan bog'lab olib borish yaxshi samara beradi. Shu jihatdan kelib chiqqan holda geografiya darslarida Vatanimiz tabiati va uning boy tabiiy resurslari o'rganilayotganda, Vatan adabiyotiga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda badiiy adabiyotlardan foydalangan holda o'tilgan darslarda talaba va o'quvchilar faolligini oshirish, ularning mustaqil ishlashga o'rgatishdan iboratdir. O'zbekistonni ta'riflab she'r yozmagan, o'zbekistonlik shoir bo'lmasa kerak. Geografiya darslarida badiiy adabiyot materiallari geografik mazmunli bo'lishi bilan birga tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lsa ayni muddao bo'lar edi.

Shoir Hamid Olimjon o'zining mashhur "O'zbekiston" she'rida:

O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston,
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur, -
desa, G'afur G'ulom:
Sevikli vatanim O'zbekistonim,
Butun Sharq ichra zebo – ko'rkisan.
Go'zalsan, obodsan, to'qsan madaniy,
Qizlarning qoshi uzra qiyg'och bo'rkisan, -

deydi. Bu singari lirik parchalar kishi vujudini hayajon va larzaga keltiradi. Badiiy adabiyot materillaridan O'zbekiston geografiyasi darslarida foydalanish va o'z vatanini sevgan, unga cheksiz muhabbat qo'ygan, u bilan faxrlanadigan haqiqiy vatanparvarlarni tarbiyalashga samarali ko'maklashadi.

Yana shu «O'zbekiston» she'ridan quyidagi to'rtlikni ko'raylik:

Bunda bulbul g'azal o'qiydi,
Bunda qurtlar ipak to'qiydi.
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol.

Bu parcha badiiy jihatdan yuqori, estetik jihatdan zavqli bo'libgina qolmasdan, ilmiy jihatdan ham haqqoniy hisoblanadi. Bahor oxirida o'lkamizga bulbul kelishi, arilar asalini keltirishi, qurtlar pilla o'rashi, shu vaqtda qushlarga ham sharoit yaxshilanishini olimona, san'atkorona tarannum etadi.

Yozuvchi Oybekning «O'zbekiston» she'rida:

Bir o'lkaki, qishlarida shivirlar bahor,
Bir o'lkaki sal ko'rmasa quyosh sog'inar. –

deb, o'lkamiz iqlimi haqida ilmiy va adabiy tomonidan geografik puxta satrlar yaratgan. O'zbekistonda qish ba'zan iliq o'tadi. Sovuq kunlarda janubida iliq (tropik) havo massasi esnasagina kunlar isib, hatto yanvarda harorat +20⁰ S gacha ko'tariladi. Oybek iborasi bilan «shivirlar bahor» bo'ladi. Bulutli kunlar kam bo'lib, serquyosh kunlar ko'p bo'lishi, «Sal ko'rmasa quyosh sog'inar» misrasida o'zining badiiy ifodasini topadi.

O'z vatani haqida she'r bitmagan o'zbek shoiri yo'q, demak bunday she'rlar bir talay. Badiiy adabiyot materiallaridan geografiya darslarida foydalanish ta'limni estetik tarbiya bilan uyg'unlashtiradi. Estetik tarbiya esa go'zallikni his etish va go'zallikni yaratishdan iborat.

Badiiy adabiyot materiallaridan geografiya darslarida o'z o'rni bilan foydalanilganda o'quvchilarga zavq-shavq bag'ishlaydi. Emotsiya, idrok qilish jarayonini tezlashtiradi, darsni maroqli va qiziqarli bo'lishiga xizmat qiladi. O'zbekiston geografiyasini o'tish jarayonida badiiy adabiyot materiallaridan foydalanishning yana bir muhim ilmiy nazariy-ahamiyati talaba va o'quvchi yoshlarni fidoyi vatanparvarlar qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Shoir Abdulla Oripovning Vatan haqidagi quyidagi misralariga e'tibor bering:

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,

Qiyosingni topmadim aslo.

Shoirilar bor, o'z yurtin butun —

Olam aro atagan tanho.

Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,

Qanotida kumush diyori,

Bir o'lka bor dunyoda, biroq

Bitilmagan dostondir bori:

Faqat ojiz qalamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bu otash misralar o'quvchilar qalbida ona-yurtimiz O'zbekistonga nisbatan cheksiz mehr-muhabbat hislarini uyg'otadi. Binobarin, O'zbekiston geografiasini o'tish jarayonida badiiy adabiyot materiallaridan foydalanishning yana bir muhim ahamiyati fidoyi vatanparvarlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Geografiya darslarida badiiy adabiyot materiallaridan foydalanish yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda muhim omillardan biridir. Tabiatshunoslik darslarida badiiy adabiyot materiallaridan foydalanish tabiatni sevish, uning ne'matlarini asrash, avaylash, e'zozlash va ko'paytirishga rag'batlantiradi. Demak, hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lgan ekologik tarbiyaga ko'maklashadi va yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda muhim omillardan hisoblanadi. O'quvchilarga o'z o'lkasi haqida bilimlarni berishda Orol muammosi haqida ma'lumotlar beriladi, chunki bu muammo nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun sayyoramiz fojiasidir. Atoqli Qoraqalpoq shoiri Jo'lmirza Oymirzaev bu fojiani quyidagicha nazmga olgan:

Amu, Sirning suvi bulqindi,

Yaralangan arslondek yulqindi.

Asov toyga solinganday tushovlar,

Jimib qoldi to'lib toshgan to'lqini.

Yana shoir:

Bari, bari ketib qoldi boshqa yoqqa bosh urib,

Oydin tungi fig'on chekar, asov qumlar tosh urib!...

Sening ushbu ayanch holing yuragimiz yarasi,

Ey, suyuqli Orol, sensan ko'zimiz qorasi.

Yuqoridagi misralar Orolni saqlashga va tiklashga badiiy da'vat etadilar.

Geografiya darslarida badiiy adabiyot materiallaridan foydalanish yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda muhim omillardan biridir. Inson tarbiyasi ko'p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir, bunga barcha fan o'qituvchilar o'z hissalarini qo'shib borishlari zarur. Shuning uchun geografiya darslarida badiiy adabiyot, tarix va boshqa badiiy vositalardan foydalanar ekanmiz, bo'lajak mutaxassis, tarbiyalash bilan birga yosh avlodlarni iste'dodini voyaga yetkazish, bo'lajak realist shoirlar, musavvirlar, bastakorlar va eng avvalo o'qituvchidek fidoyi ijodkor shaxslarni tarbiyalashga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston nurli kelajakka yo'l olar ekan jamiyat barcha a'zolarini yuksak ongli, puxta axloqli va o'tkir didli qilib tarbiyalash talab etiladi. Geografiya o'qituvchisi o'z mashg'ulotlarida badiiy adabiyot materiallaridan foydalanar ekan, bu olijanob ishga o'z hissasini qo'shgan bo'ladi. Darslarini olib borishda, boshqa fanlar bilan bog'lab olib borish yaxshi samara berishi bizga ma'lim. Shu fikrdan kelib chiqqan holda geografiya darslarida Vatanimiz tabiati va uning boy tabiiy resurslari

o'rganilayotganda Vatan adabiyoti, fanlariga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Undan tashqari badiiy adabiyotlardan foydalangan holda darslarda talaba va o'quvchilar faolligini oshirish, ularning mustaqil bajargan ishlariga alohida e'tibor berilishi lozim.

O'zbekistonning baland orombaxsh tog'lari, keng yaylovli tekisliklari, jannatmakon vodiylari, zilol suvlari, daryo va soylari, issiq va muloyim iqlimi, go'zal fasllari bebahodir. Nihoyat xilma-xil yer osti boyliklari, paxtasi, ipagi, qorako'li va shirin-sharbat mevalari har bir fuqaroda milliy iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Bular haqida bilim berish geografiya fanining zimmasiga yuklatilganidir. O'zbekiston geografiyasi kursining ilmiy-nazariy saviyasini ko'tarish, uning ta'lim-tarbiyaviy samaradorligini keskin oshirish kerak. Ko'rgazmali va badiiy vositalar ta'limni oson va tushunarli qilish bilan birga o'quvchilarga estetik zavq bag'ishlaydi, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Даринский А.В. “Методика преподавания географии”. Москва, “Просвещения”, 1975.
2. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Т., Ўқитувчи, 1996.
3. Топилдиев В.Р. Таълим ва тарбия жараёнларини ташкил этишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари. –Т.,2015. 164-бет.
4. Қурбонниёзов Р. География ўқитиш методикаси.Т.,Ўқитувчи,2001 й.
5. Набихонов М.Н. Набихонов Ж.М. Ўзбекистон географияси таълимида бадий адабиёт материалларидан фойдаланиш (География ўқитувчилари учун методик қўлланма). Тошкент, 1998
6. Холдорова Г. Мирзачўл табиий ўлкаси ландшафтларининг ўзгаришида шамолнинг аҳамияти,Экология хабарномаси 2021 №2(233)
7. Холдорова, G. (2021). ПРОБЛЕМЫ МОНИТОРИНГА ОКРИЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ МИРЗАЧУЛЯ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1455>
8. Холдорова Г., Эсонов С.Э. М Сангзор хавзаси геосистемаларида тупрокларининг мелиоратив ҳолатини картага туширишда тизимли таҳлилдан фойдаланиш “Journal of Natural Sciences” №2 2021 у. <http://natscience.jspi.uz>
9. Gapparov, A., & Kholdorova, K. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
10. Abdunazarov, U., & Sabitova, N. (2020). Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytashkent region of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*
11. Хакимов, К. М., Холдорова, Г. М., & Эрматова, Н. Н. К. (2017). Принципы и основные положения номинации географических объектов. *Проблемы современной науки и образования*, (4 (86)).